



## Bolalarning aybi yo'q!

3-betda o'qing ↗



## Mansabdorlar ma'muriy javobgalikka tortildi

4-betda o'qing ↗

# INSON va qonun

2025-YIL  
25-MART  
SESHANBA  
№ 12  
(1476)

[www.hudud24.uz](http://www.hudud24.uz)

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz)

[telegram.me/hudud24official/](https://telegram.me/hudud24official/)

[facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

QADRIYAT

## NAVRO'Z - YANGI HAYOTNING BOSHLANISHI



HAR yili 21-mart kuni millionlab odamlar tomonidan nishonlanadigan Navro'z bayrami qadimiy va fayzli an'analar bilan yanada go'zaldir. Navro'z yangi kun, yangi yilning boshlanishi, tabiatning uyg'onishi va yangi hayot boshlanishing ramzi hisoblanadi. Bu bayram asrlar davomida turli xalqlarning madaniyatida alohida o'rinn tutib kelgan bo'lib, bugungi kunda ham katta ko'tarinkilik bilan nishonlanadi.

2009-yilda Navro'z bayrami YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yildan boshlab esa BMT Bosh Assambleyası 21-martni Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qildi.

O'zbek xalqi uchun Navro'z - mehr-oqibat, ezgulik va hamjihatlik bayrami. Har yili bayram oldidan hovli va ko'chalar tozalanib, bayramga tayyorgarlik ko'riladi. Bayram bahona yaqinlar jam bo'lishadi, oila a'zolari bir joyga yig'ilib, bayram taomlari tayyorlashadi, o'zaro mehmondorchilik qilishadi. Shuncha yaxshiliklarning barchasiga go'zal va betakror Navro'zi olam sababchidir. Bayram kunlarida yoshi ulug' insonlar yo'qlanadi, ularning duosi olinadi. Navro'z asriy qadriyatlarimiz xabarchisi ekani, uzoq tariximizni yodga solishi bilan yanada qadrlidir. Navro'zning shohna taomi sumalakning tayyorlanishida ham o'ziga xostlik bor. Sumalak hayot va baraka ramzi sifatida Navro'z kechalarida tayyorlanadi. Keksalar tili bilan aytganda, sumalak, halim, ko'k somsa, bahoriy ko'katlardan tayyorlangan pishiriqlar va boshqa milliy taomlar tanga darmon bo'ladi. Keksalar, bemorlar, yordamga muhtojlarga yordam qo'li cho'ziladi, shu tariqa yuraklardagi mehr ham Navro'z bahona birlashadi.

➡ 2-betda

HUQUQIY XABARNOMA

### ✓ Davolash xarajatlari "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan to'lanadi

"AYOLLAR daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar yoki ularning voyaga yetmagan farzandlariga davalash, dori vositalarini olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag' zarur bo'lgan holatlarda, tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi va sektor rahbari xulosalari bilan tibbiy muolaja xarajatlari "Ayollar daftari" jamg'armasi, Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab beriladi.

Bunda quyidagi miqdordagi xarajatlar "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan to'lab beriladi:

- ✓ dori-darmon olib berish uchun BHMning 20 baravarigacha (7 million 500 ming);
- ✓ murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun BHMning 100 baravarigacha (37 million 500 ming).

### ✓ Ishga qabul qilishni rad etsa...

Qonunchilikka ko'ra, homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq to'lash miqdorini kamaytirish taqilanganadi.

Bunda, ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, quyidagi jazo choralaridan biri qo'llanilishi ga sabab bo'ladi:

- ✓ BHMning 25 baravarigacha miqdorda (8 million 500 ming so'mgacha) jarima;
- ✓ 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish;
- ✓ 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

### ✓ Hamkorlik yo'lga qo'qiladi

2025-yil 18-martda qabul qilingan "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida raqamli iqtisodiyot sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim tasdiqlandi.

Bitim 2024-yil 6-noyabr kuni Bishkek shahrida imzolangan.

Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ etib belgilandi.

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlilik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnomaga kuchga kirgandan so'ng belgilangan tartibda uning qoidalari bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

@huquqiyaxborot

## 2 KUN NAFASI

## NAVRO'Z - YANGI HAYOTNING BOSHLANISHI

## Boshlanishi 1-betda

2025-yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda "Qadriyatlarin boqiy bo'sin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori savida keng nishonlandi.

Bu borada Prezidentimizning tegishli qarori qabul qilindi. Bu yilgi Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriyalarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya dafstarlariga kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar

olish, ular uchun bayram dasturxonasi yozish hamda turli xayriya tadbirlari o'tkazish belgilandi.

Biz uchun Navro'z oddiygina bayram emas, balki milliy qadriyat va urf-odatlarimizni asrab-avvalash, tabiat bilan uyg'un yashash va insonlarga mehr-muhabbat ulashish bayramidir. Bu kunda odamlar qalbida ezgu tilaklar bilan yangi hayotga qadam qo'yadi. Shu bois, Navro'z xalqimizning eng sevimli va qadrli bayramlaridan biri sifatida asrlar osha yashayveradi.

Dilnoza RAHIMOVA,  
Inson huquqlari bo'yicha  
O'zbekiston Respublikasi  
Milliy markazi xodimi



**SUDLOV faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar fuqarolar va tadbirkorlarning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudlarga murojaat qilishini liberallashtirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, shuningdek, sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash imkonini berdi.**

Natijada ariza berish, ishda masofadan turib ishtirot etish, sud hujjatlarini olish va ishlarning ko'riliishi haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar Oliy sudning interaktiv xizmatlar portali orqali elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-mart-dagi "Ahliga sud muhokamalarida masofadan ishtirot etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi natijasida Fuqarolik va Iqtisodiy protsessual kodekslariga aholining sud muhoka-

## YENGILLIK

malarida masofadan turib ishtirot etishining huquqiy asoslari yaratilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, Fuqarolik protsessual kodeksining 209-moddasiga "ishda ishtirot etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirot etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirot etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirot etishini ta'minlayotgan sud ushbu shaxslarning kelgan-kelmagani tekshiradi va kelgan shaxslarning shaxsini aniqlash lozimligi kiritildi.

Bundan tashqari "videokonferensaloqa rejimi"dagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan

foydalangan holda ishtirot etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatları va javobgarligi tushuntirilgani, shuningdek, guvohning qasamyodi audio va videoyozuv orqali qayd etilishi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatilishi belgilandi".

Shuningdek, Iqtisodiy protsessual kodeksining 166-moddasiga "ishda ishtirot etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirot etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalananishi belgilandi".

**Dadaxon XUDOYNAZAROV,**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti**  
**kafedra mudiri o'rinnbosari,**  
**yuridik fanlar bo'yicha**  
**falsafa doktori**

■ SO'RAGAN EDINGIZ

## DAVLAT RO'YXATIDAN CHIQARISH TARTIBI QANDAY?



- TADBIRKORLIK subyektini davlat ro'yxatidan chiqarishning qonuniy tartibi va muddatlari qanday?

Akrom MANSUROV

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish qonunchiligidan ko'ra, quyidagicha tartibda amalga oshiriladi. Tijorat tashkilotlari faoliyatini harakatsiz deb topish uchun 9 oy mobaynida moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha bank hisobvaraqlariga pul mablag'lari tushmagani, shu muddat mobaynida soliq hisobotlari taqdim etilmagani asos bo'ladi. Bunday holatlarda, tijorat banklari uch ish kuni ichida u hisobga qo'yilgan joydagil davlat soliq xizmati organiga tizim orqali ma'lumot taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organi tijorat banklaridan ma'lumot tushgach yoki hisobot topshirish muddati tuga-gach, 3 ish kuni mobaynida quyidagi organlarni xabardor etishi kerak:

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organ va ro'yxatdan o'tgan joydagil davlat statistika organlarini;
- Majburiy ijro byurosi tuman (shahar) bo'limini;
- ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organni;
- avtotransport vositalari, qishloq xo'jaligi texnikasi va ro'yxatdan o'tkaziladigan boshqa texnika vositalarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarni;
- Iqtisodiyot va Moliya vazirligini xabardor qiladi.

Davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning tijorat tashkiloti haqidagi moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmaganini, mol-mulki mavjudligini, yuridik va faoliyat ko'rsatish manzilida mavjudligini soliq

tekshiruvidan o'tkazadi. Shuningdek, tijorat tashkilotining barcha qarzdorliklari (2-son kartotekasi) tahlini, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorligi mavjudligini, muassisalarining (qatnashchilarining) turajoyini aniqlash va ularni tugatish jarayoniga jalb qilish choralarini ko'radi. Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tijorat tashkilotlari muassisalariga tijorat tashkilotini ixtiyoriy tugatishni taklif etadi. Yig'ilgan va mavjud ma'lumotlar asosida tijorat tashkilotining faoliyatini kameral soliq tekshiruvidan o'tkazadi.

Tijorat tashkilotining soliq va yig'imlar bo'yicha qarzdorliklari aniqlanmagan, mol-mulki mavjud bo'lman, tijorat tashkiloti muassisalarini (qatnashchilarini), ularning vakillari va rahbarini tugatish jarayoniga jalb etish imkonni bo'lмагanda, davlat soliq xizmati organlari tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga 10 ish kunida tijorat tashkilotini harakatsiz holatga o'tkazish to'g'risida taqdimnomaga yuboradi.

Tijorat tashkilotlari harakatsiz holatida saqlanishiga uch yil to'lqanda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ harakatsiz holatga o'tkazilgan tijorat tashkilotlari faoliyati tiklanmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda 3 ish kunida davlat reyestridan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi va bu haqda davlat reyestriga tegishli yozuv kiritadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgani hamda tovar belgisining ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnomani (agar mavjud bo'lsa) bekor qiladi. Agar ularni topish imkonni mavjud bo'lmasa, 3 ish kunida bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxatga olish organi veb-saytida e'lon qilinadi.

Tijorat banklari, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga tijorat tashkiloti davlat reyestridan chiqarilgani to'g'risida tizim orqali xabarnoma yuboradi.

**Baxriddin MELIQULOV,**  
**Uzun tuman adliya bo'limi**  
**davlat xizmatlari markazi**  
**mas'ul xodimi**

## BOLALARNING AYBI YO'Q!

**BIZ** hayotda bir-biriga o'xshamas qiyofalar, tabiatini har xil insonlar, turfa xil oilalar, turli-tuman yashash sharoitlarini ko'ramiz. Har bir inson oila qurar ekan, bir kun kelib oilasi buzilishini xayoliga ham keltirmaydi. Maqolamiz qahramonlari – Manzura bilan O'tkir (ism-shariflar o'zgartirilgan) ham yaxshi niyatlar bilan oila qurgandi. Qizlari Durdona tug'ilganida ulardan baxtli odam yo'q edi. Lekin oradan yillar o'tib, ular o'zaro kelisholmay qolishdi. Er-xotin o'rtasida hurmat, mehr yo'qoldi.

Janjallardan bezib ketgan Manzura qizi Durdona bilan ota uyiga ketishga majbur bo'ldi. Oradan oylar o'tsa hamki, O'tkirdan darak bo'lmasdi. Ni-hoyat, bir kuni u Manzuraning yoniga kelib, onasi nabirasini judayam so-g'inganini aytib, bolasini bir kunga o'zi bilan olib ketishga ruxsat oldi. Lekin O'tkirning xayolida boshqa reja bor edi. Shu bugun qizi Durdonani bir amallab o'zi bilan olib ketsa bo'ldi, keyin uni onasiga umuman ko'rsatmaydi...

U buzilgan oilasini shu tariqa tiklamochi edi. Manzura O'tkirning bu alvdov hiylasidan bexabar edi. U shu tariqa bir necha kun qizimni olib keladi, degan umidda sabr bilan kutdi. Ammo O'tkirdan darak bo'lmasdi. Oradan 10 kun vaqt o'tdi. Manzura O'tkirning niyatini tushunmadni. O'tkir qaysarlak



qildi, qizalog'ini ko'rsatishdan bosh tortdi. O'ylab yurgan shartini ochiq aytidi. Agar Manzura oilasiga qaytib, u bilan birga yashasagina, qizini ko'ra olishini, aks holda unga qizini ko'rsatmasligini aytib, zo'ravonlik yo'liga o'tdi.

Ilojsiz qolgan Manzura masalaning yechimi uchun sudga da've arizasi bilan murojaat qilishga qaror qildi.

Sudda javobgarning "Durdona onasini yoqtirmaydi, onasi bilan ya-shagisi kelmaydi", degan vajlari o'z tasdig'ini topmadni. Ishda aniqlangan

holatlarga qaraganda, ikki tomonda ham farzand tarbiyasi uchun yetarlicha sharoit borligi ma'lum bo'ldi. Sud amaldagi qonunchilikka asoslanib, ishga tegishli barcha holatlarni o'r-ganib, Durdona onasi Manzuraning tarbiyasiga olib berilishi haqida qaror qabul qildi.

Yuqoridagi voqeal bilan biz kim-ningdir hayotini muhokama qilish, uning yashash tarziga baho berish dan yiroqmiz. Ammo kattalarning xatosidan bolalar ozor chekayotgandan afsusdamiz. Oilaviy ajrimlarda bolalarning aybi yo'qligini, nahotki, tushunish qiyin bo'lsa?

Yuqoridagi hayotiy voqeadan farzandlar notinch oilani saqlab qolish uchun qurol bo'lishi kerak emas, degan xulosa chiqarish mumkin. Ak-sinchal, bolalar to'laqonli tinch oilada chinakam bolalikni his qilib yashasa, kelajakda bunday farzandlardan ja-miyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shadigan insonlar yetishib chiqishi aniq.

**Sholpanay ABDIYEMIROVA,**  
**Adliya vazirligi huzuridagi**  
**Qonunchilikni tahlil qilish va**  
**tartibga solish ta'sirini**  
**baholash instituti**  
**bosh yuriskonsulti**

## SHAFFOF va TUSHUNARLI BO'LISHI LOZIM

"MA'MURIY tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, ma'muriy tartib-taomillar ochiq, shaffof va manfaatdor shaxslar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ma'muriy organlar ma'muriy tartib-taomillar haqidagi axborotdan davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida-gi qonunchilikda belgilangan usullar orqali erkin foydalanishini ta'minlashi shart. Maz-kur prinsip ma'muriy ish yuritishdagi muhim prinsiplardan biri hisoblanadi. Uning maz-muniga ko'ra, davlat organi ma'muriy ish yuritish uchun barcha ma'lumotlarni ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish va ulardan erkin foydalanishni ta'minlashi lozim.

Mazkur prinsip o'zida bir qator muhim jihatlar ni namoyon qiladi. Xususan, ma'muriy ish yuritish ochiq bo'lishi va ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar turli to'siqlarsiz ma'lumot olishi, ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ma'muriy organ manfaatdor shaxslarga sodda va tushunarli bo'lishi lozim.

Ma'muriy tartib-taomillarning yana bir muhim prinsipi mutanosiblik hisoblanadi. Konstitutsiya ning 20-moddasi to'rtinchini qismiga muvofiq, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Mazkur tamoyil "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Mutanosiblik prinsipiiga ko'ra, ma'muriy organ tomonidan xususiy shaxslarga nisbatan qabul qilinadigan har bir ma'muriy akt va amalga oshiriladigan xatti-harakatlar doirasidagi ta'sir choralarini umumiyl va sohaviy qonunlarda o'rnatalgan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Sudya ma'muriy ish yuritishda mutanosiblik prinsipi to'g'ri qo'llanilganini aniqlashda undagi



to'rtta jihatga e'tibor qaratishi kerak. Birinchidan, ta'sir chorasi qo'llashda qonuniy maqsadning mavjudligi, ikkinchidan, qo'llanilayotgan ta'sir chorasi qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo'lishi, to'rtinchidan, ta'sir chorasi qo'llanilayotgan manfaatdor shaxsning ahvoli imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning yana bir muhim prinsipi ishonchilik prinsipi hisoblanadi. Ushbu prinsip mazmuniga ko'ra, ma'muriy ish yuritish davomida manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan haqiqiy holatlar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar aksi isbotlanmaguniga qadar ishonchli hisoblanadi.

Agar ma'muriy organ o'z imkoniyati doirasida tekshirish o'tkazgach, ishni to'g'ri hal qilish uchun faqat manfaatdor shaxsgina taqdim eta oladigan hujjat va ma'lumotlar talab etilsa va ma'muriy organ qonunda ko'rsatilgan qo'shimcha hujjat va ma'lumotlarni manfaatdor shaxsdan talab qilsa, ushbu holat mazkur prinsipning buzilishi hisoblanmaydi.

Ishonchilik prinsipi bilan bir qatorda, ma'muriy ish yuritishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladigan ishonchning himoya qilinishi prinsipi ham mavjud. Qonunga muvofiq, vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi. Ma'muriy organlar manfaatdor shaxslarning yuzaga

kelgan ma'muriy amaliyot bilan bog'liq qonuniy kutilgan natijalarini hurmat qilishi shart. Yuzaga kelgan ma'muriy amaliyotning o'zgartirilishi ja-moat manfaatlari bilan oqlangan bo'lishi, umumiyl xususiyatga ega va barqaror bo'lishi kerak.

Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunning 59-moddasi yettinchi qismiga ko'ra, manfaatdor shaxsning ishonchi quyidagi hollarda himoya qilinmaydi, agar:

- manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa;
- manfaatdor shaxs o'ziga ma'muriy hujjat asosida taqdim etilgan pul mablag'lardan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalangan bo'lsa;
- manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning g'ayrihuquqiyligini bilgan yoki o'z aybiga ko'ra bu haqda bilmagan bo'lsa;
- ma'muriy hujjat aldashi, tahdidlar yoki ma'muriy organga boshqacha tarzda g'ayrihuquqiy ta'sir ko'rsatish oqibatida qabul qilingan bo'lsa;
- qonun manfaatdor shaxslar ishonchining himoya qilinishi hisobga olmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilishni talab etsa.

Sudya mazkur prinsip bilan bog'liq nizolarni ko'rishda ishonchning himoya qilinmasligi holatlariga e'tibor qaratishi kerak. Agarda ushbu asoslar inobatga olinmasa, yuqori instansiya sullari tomonidan birinchi instansiya sudi hujjatini bekor qilishga asos bo'lishi mumkin.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish jarayonida sudya tomonidan ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilsa, u qabul qilgan hujjat Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 220-moddasiga binoan hal qiluv qarori bekor qilinishiga olib keladi. Shu sababli, mazkur masalani har tomonlama tahlil qilish va to'g'ri qo'llash talab etiladi.

**Shahnoza BURHONOVA,**  
**Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi**

## 4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

### MANSABDORLAR MA'MURIY JAVOBGARLIKKA TORTILDI

**BUXORO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Respublika ixtisoslashgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi davlat muassasasi Buxoro viloyat filiali faoliyatida o'tkazilgan monitoring natijasida 378 nafar xodimga qoshimcha mehnat ta'til kunlari berilmagani aniqlandi.**

Sog'lijni saqlash vazirligi va Sog'lijni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi o'rtesida 2022-2024-yillar uchun tuzilgan tarmoq kelishuv o'sha vaqtida amalda bo'lgan Mehnat kodeksining 51-moddasiga binoan Bandlik va mehnat vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, tarmoq kelishuvining talablaridan kelib chiqqan holda jamaoa shartnomasi qabul qilingan va viloyat Kengashidan ro'yxatdan o'tkazilgan. 2022-2024-yillar uchun tuzilib imzolangan tarmoq kelishuvining 11-bo'lum, 4-bandida tomonlar kelishuv kuchga ega bo'lgan muddatda uni bajarmaslik yoki bekor qilish huquqiga ega emasligi, 5-bandida esa ushbu kelishuv majburiyatlari bajarilmagan hollarda tomonlar mas'ul xodimlariga o'sha vaqtida amalda bo'lgan Mehnat kodeksining 181, 182-moddalariga asosan intizomiy jazo choralar qo'llanilishi mumkinligi belgilangan. Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 233-moddasida har yilgi mehnat ta'tilda bo'lgan vaqt uchun xodimga kodeksning 257-moddasiga muvofiq hisoblab chiqariladigan o'rtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanishi, har yilgi mehnat ta'tili vaqt uchun haq to'lash jamaoa shartnomasida, ichki hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda, biroq ta'til boshlanguniga qadar oxirgi ish kunidan kechiktirmay amalgaga oshirilishi ko'rsatilgan.

Mazkur qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish maqsadida kiritilgan taqdimnomaga asosan filial rahbarining 351 ta buyrug'i qonunchilikka muvofiqlashtirilib, 378 nafar xodimga 339 million 833 ming 198 so'm miqdoridagi qoshimcha mehnat ta'til kunlari uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni qayta hisob-kitob qilib, ularning to'liq to'lab berilishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, kiritilgan ma'muriy taklifga asosan filialning mansabdar shaxslari ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Tuyg'un AZIMOV,

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

### FOYDALANILMAGAN TA'TIL UCHUN KOMPENSATSIYA UNDIRILDI

**FUQARO M.J. Yunusobod tumanidagi "Ta'minot va logistika" davlat korxonasida ishlagan davrida foydalanimagan mehnat ta'tillari uchun kompensatsiya to'lanmaganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.**

Murojaat o'rganilganda, fuqaro "Ta'minot va logistika" davlat korxonasida 2021-yilda ish faoliyatini boshlagani, o'sha paytdan buyon yillik mehnat ta'tili ga chiqmagani, 2025-yil 6-yanvarda mehnat shartnomasi bekor bo'lganiga qaramasdan, hozirgi kunga qadar foydalanimagan barcha asosiy va qoshimcha ta'tillar uchun kompensatsiya to'lanmagan ma'lum bo'ldi.

Adliya bo'limi aralashuvi bilan 2025-yilning 10-fevral kuni fuqaroga 20 milliondan oshiq to'lanmagan kompensatsiya mablag'lari undirib berildi hamda korxona rahbarining xatti-harakatiga huquqiy baho berish va ma'muriy huquqbazarlik alomatlarini ko'rib chiqish uchun davlat mehnat huquq inspektoriga taklif kiritildi.

Oybek SATTAROV,  
Yunusobod tuman adliya bo'limi  
bosh maslahatchisi

### ISM, FAMILIYA VA OTA ISMINI O'ZGARTIRMOQCHIMISIZ?

**VAZILAR Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi "Nikoh, oila va fuqarolik holati da'lolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan familiya ism va ota ismini o'zgartirish tartibi belgilab qo'yilgan.**

Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi ariza beruvchi 16 yoshga to'lgach, uning doimiy (vaqtinchalik) ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, FHDY organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Agar 16 yoshga to'lgan shaxs fuqarolik pasporti (identifikatsiyalovchi ID-kartasi) yoki pasport o'rnnini bosuvchi shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat olgunga qadar familiyasi, ismi, ota ismini o'zgartirish haqida ariza bersa, u holda arizaga tug'ilganlik haqida guvohnoma ilova qilinadi.

Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi arizalar:

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq;

- sudning hal qiluv qarori asosida;
- agar familiya va ism eshitilishda yoqimsiz bo'lsa;
- agar familiya va ism millatiga to'g'ri kelmasa;
- xohishiga qarab nikohgacha bo'lgan familiyaga (nikohda turgan davrida ham, nikohdan ajratilgandan keyin ham) qaytishda;

oila uchun umumiyligi familiyada bo'lish istagi paydo bo'lganda (agar nikoh tuzish paytida er-xotin umumiyligi familiyada qabul qilishmagan bo'lsa);

bolalarning ota yoki ona bilan bir xil familiyada bo'lish, onasining nikohgacha bo'lgan familiyasi bo'lish, o'gay otaning yoki vasiysining familiyasi bo'lish istagi paydo bo'lganda;

16 yoshga to'lgan shaxsga otalikni belgilashda ko'rib chiqiladi.

Ariza beruvchining familiyasi, ismi, ota ismining o'zgartirilishi maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa tuzilgan taqdirda, ushbu holatning aniq sabablari ko'rsatiladi.

Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi arizani qabul qilgan FHDY organi tomonidan yangi guvohnoma beriladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, farzand dunyoga kelar ekan, ota-onasi chiroyli nom bilan atamog'i shart va albatta farzandiga qanday ism beryapti, uning ma'nosini ham bilishi kerak.

**Madinabonu KARIMOVA,  
Chust tuman adliya bo'limi  
FHDY bo'limi 2-toifali inspektori**

### MEHNATGA LAYOQATSIZLIK VARAQASINI ONLAYN OLİSH MUMKИН

**TIBBIYOT muassasalarini tomonidan fuqarolarning kasalligi sabab beriladigan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini olish uchun ushbu muassasaga qayta borish shart emas. 2024-yil 1-yanvardan Respublikaning barcha hududlarida mehnatga layoqatsizlik varaqalari va ma'lumotlarini faqat elektron shaklda rasmiylashtirish belgilangan.**

Buning uchun shunchaki my.gov.uz portali orqali "Sog'lijni saqlash" bo'limidan kerakli xizmatni tanlab, mehnatga layoqatsizlik varaqasini onlayn olish kifoya. Xizmatdan foydalanishda hech qanday hujjat talab etilmaydi. Shuningdek, mutlaqo bepul va qulay.

**Akmaljon ABDUNAZAROV,  
Chust tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i**

### ALIMENT TO'LASHDAN BOSH TORTGANDA...

**ALIMENT voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan undiriladi.**

Shuningdek, voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**Nazlimxon AMANGELDIYEVA,  
Xo'jayli tuman adliya bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti**



## QANDAY HOLATLARDA JAZONI NISBATAN YENGILROQ TURGA ALMASHTIRISH MUMKIN?



JAMIYAT taraqqiyoti inson huquqlarining to'liq ta'minlanishi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, ayollar huquqlarining himoyalanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan homilador ayollarning mehnat huquqlari masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Mehnat kodeksiga ko'ra, homilador ayollar diskriminatsiyaga uchramasligi kerak. Ya'ni, ish beruvchi ularni ishga qabul qilishdan bosh tortishi mumkin emas.

Mehnat kodeksining 392-moddasi birinchi qismida "Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etishni yoki ish haqi miqdorini kamaytirishni taqiqlash" qoidalari o'z aksini topgan. Kodeksning 119-moddasiga ko'ra, ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Ish beruvchi tomonidan homilador ayollarni va farzandi bor ayollarni homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib ishga qabul qilmaslik g'ayriqonuniy rad qilish deb baholanadi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikka tortish

## HOMILADOR AYOLLARNING MEHNAT QILISH HUQUQI

uchun asos bo'ladi. Ish beruvchi ishga qabul qilishni rad etgan taqdirda, rad etish sabablarini ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan yozma asosini homilador ayol yoki farzandlari bor shaxs talabiga ko'ra uch kun ichida taqdim etishi shart.

Ba'zan ish beruvchilar homilador ayollarni ishga qabul qilishdan



bosh tortishadi. Buning asosiy sabablarini ayol qisqa muddat ichida navbatdagi tug'uruq ta'tiliga chiqib ketishi, ayolning sog'lig'i va mehnat

qobiliyatiga oid stereotiplar, ish beruvchining homilador ayolga maxsus imtiyozlar berishdan qochishi bilan izohlash mumkin. Biroq bu holatlar qonunga zid bo'lib, ishga qabul qilishda diskriminatsiya hisoblanadi.

Shu o'rinda, nafaqat milliy qonunchiligidan, balki eng asosiy xalqaro hujjatlardan bire bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida kamsitilishga yo'l qo'ymaslik prinsipi tasdiqlanib, har bir inson hech qanday farqlarsiz, shu jumladan, jinsga nisbatan farqlarsiz barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerakligi e'lon qilingan.

Faringiz YUSUPOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

## UZLUKSIZ YURIDIK TA'LIM



BUGUNGI kunda Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan tashkil etilgan respublikamizning barcha hududlaridagi "huquq sinflari"da huquq fani chuqurlashtirib o'tilmoqda. Bundan tashqari, mazkur sinflarda universitetning professor-o'qituvchilari tomonidan muntazam ravishda bevosita hamda onlayn shaklda maktab o'qituvchilari uchun zamонави pedagogika va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida yoshlarning huquqiy bilimini oshirishga qaratilgan "Huquq maktabi" mobil ilovasi yaratildi. Ushbu ilovadan yuqori malakali ustoz va ekspertlar tomonidan tayyorlangan huquqiy o'quv materiallari o'rın olgan. Mobil ilovaning muvaffaqiyatli foydalanuvchilari Adliya vazirligi va TDYU tomonidan maxsus sertifikat bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, respublikamizdagagi huquq fani o'qituvchilariga metodik va amaliy jihatdan ko'maklashish maqsadida Telegram ijtimoiy tar-mog'ida "Huquq ta'limi" sahifasi yaratilgan. Mazkur sahifa orqali sohaga doir qonunchilikdagi yangiliklar, darsliklar, o'quv dasturlari va o'quv materiallari, "Davlat va huquq asoslari" fani dan videoedarslar hamda taqdimotlar, huquqiy ta'limga munozaralarni o'tkazish bo'yicha ma'lumotlar, mutaxassislar bilan o'tkaziladigan pod-kast va suhbatlarni kuzatib borish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, yuridik ta'limga uzlusiz o'quv jarayonini takomillashtirish uchun ta'limga das-turlarini zamon talablariga moslashtirish zarur. Jumladan, yuridik ta'limga tizimida o'quv dasturlarini xalqaro huquq, inson huquqlari, raqamli huquq va boshqa zamонави yo'nalishlar bilan boyitish, amaliy mashg'ulotlar, sud amaliyoti va klinik ta'limga (legal clinics) tizimini yanada kengaytirish lozim.

Onlayn ta'limga platformalari, virtual sud jarayonlari, huquqiy masalalar bo'yicha simulyatsiyalar va boshqa axborot-kommunikatsiya tex-

nologiyalarini yuridik ta'limga jarayoniga kengaytirish, xalqaro stajirovkalar va almashinuv dasturlari orqali talabalar va o'qituvchilarning malakasini oshirish qamrovini kengaytirishlozim.

Chet el yuridik maktablari va boshqa ta'limga muassasalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, xalqaro stajirovkalar va almashinuv dasturlari orqali talabalar va o'qituvchilarning malakasini oshirish qamrovini kengaytirishlozim.

Yuridik ta'limga uzlusiz o'quv jarayonini takomillashtirish malakali va zamонави fikrlaydigan huquqshunoslar avlodini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, yuridik ta'limga tizimida yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar va global tajribani chucher o'rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Zarifa BOYMURODOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
uzluksiz ta'limga boshqarmasi uslubchisi

## "YO'LDAN ADASHGAN" YO'LCHILAR

JINOYAT ishlari bo'yicha Xovos tuman sudida Murod Xoliqov va Sohib Narimonovga (ism-familialiylar o'zgartirilgan) oid sud ishi ko'rib chiqildi. Sudlanuvchilar budget mablag'larini talon-taroj qilishda ayblanishgan.

Gap shundaki, Sirdaryo mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasida mas'ul lavozimda ishlab kelgan Murod Xovos tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi pudrat bo'limi boshlig'i Sohib bilan jinoiy til birikti-rib, 2021-yilda Xovos tumanidagi "Ko'hna Xovos" ziyoratgohiga olib boruvchi ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash ishlariga ajratilgan mablag'ni o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-taroy qilishgan. Ya'ni, qurilish ishlari amalda qilinmagan bo'lsa-da, 3-shakl hamda 5-shakl hisobotlarida bajarilganday qilib ko'rsatib, qo'shib yozish orqali buyurtmachining ko'zini shamg' alat qilishgan.

Sudlanuvchilarining qilmishini ipidan ignasiga-sharhlab chiqmaylikda, o'quvchilarga lo'nda qilib tushuntirib qo'yaqolsak. Xullas, yuqorida ismlari zikr etilgan shovvozlar egallab turgan lavozimini suiiste'mol qilish bilan birga, ularga bildirilgan ishonchni ham paymol qilishgan.

Sud jarayonida ayblanuvchilar aybiga iqror bo'lishdi. Buyurtmachiga yetkazilgan zararni to'liq qoplaganini bildirib, suddan yengillik ham so'rashdi. Aybiniku inkor etishning iloji ham qolmagan-di. Chunki ekspertiza xulosalari, guvohlarning ko'rsatmalari ham ularning qilmishini fosh qilib bo'lgandi.

Sud "ishbilarmo" yo'lchilarga nisbatan o'z hukmini o'qib eshittirar ekan, beixtiyor xayolga tolasiz. Inson misqollab yiqqan obro'-e'tiborini, jamiyatdagi mavqeeyini, oila a'zolarining ishonchini nafsi orqali bir zumda yo'qqa chiqarishi mumkin. Zero, nafsiga qul bo'lganlar uzoqqa bormagan.

Oybek XOLTOYEV,  
Xovos transport prokurori,  
adliya maslahatchisi

## 6 TALQIN

Aynan o'sha paytda inson huquqlarini uning o'z tanasini tasarruf etish, o'zgartirish imkoniyatini beradigan va sof shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan somatik (yunoncha soma – tana) huquqlari deb atash taklif qilingan. Masalan, huquqshunos olim V.I. Krussning fikricha, somatik huquqlar "insonning o'z tanasini mustaqil ravishda tasarruf etish, ya'ni uni "modernizatsiya", "restavratsiya" va hatto "tubdan rekonstruksiya" qilish, organizmning funksional imkoniyatlarini o'zgartirish hamda texnika va agregatlar yoxud dori-darmonalr yordamida kengaytirishga "haqli" ekaniga dunyoqarash darajasida fundamental ishonchga asoslangan huquqlardir". Somatik huquqlarning mohiyati jamiyat va davlat tomonidan tan olingen, odamning o'z tanasini tasarruf etish vakolatida ifodalangan muayyan xatti-harakatlarni bajarish imkoniyati sifatida ta'riflanadi.

Somatik huquqlar muammosi nafaqat chet ellik, balki mahalliy olimlarning ham e'tiborini tortgan bo'lsa-da, mamlakatimizda bu huquqlar hali rasman tan olinmagan. Qonunchilik va sud amaliyoti hozircha ularni chetlab o'tmoqda. Somatik huquqlarning yangiligi va o'ziga xosligi sud amaliyotida ularni himoya qilish va amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Hozirgi kunda aksariyat davatlarda shaxsiyat bilan bog'liq inson (somatik) huquqlari aniq va mukammal tartibga solinmagan. Ammo Yevropa sudlariga kelib tushgan murojaatlarning salmog'i ushbu munosabatlarning tartibga solish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, olimlar, din peshvolari va jamiyatning boshqa a'zolari ushbu munosabatning huquqiy jihatdan tartibga solinishiga, umuman, huquq sifatida tan olinishiga qarshi munosabatda.

Bu borada ayrim davatlarda alohida qonunlar qabul qilingan. Xususan, Shvetsiya qonunchiligidagi 1972-yil 21-aprelda qabul qilingan "Ayrim hol-larda jinsni aniqlashtirish" to'g'risidagi qonun, Yaponiyada 2000-yil 30-noyabrda qabul qilingan "Insonni klonlashtirish usullari va shu kabi texnologiyalarni qo'llashni tartibga solish to'g'risida"gi qonun, Niderlandiyada esa, "Inson o'z joni-ga qasd qilishida yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun mavjud.

Inson shaxsiyati bilan bog'liq somatik huquqlar sirasiga kiruvchi sun'iy urug'lantirish, surrogat ona, tana a'zolarining transplantatsiyasi, plastik

# SOMATIK HUQUQ

**MUTAXASSISLARNING ta'kidlashicha, tax-minan 30-40 yil avval inson huquqlarining yangi avlodini shakllantirish jarayoni boshlangan. U gen muhandisligi, tibbiyot, biome-ditsina va boshqa sohalarda zamonaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan tav-siflanadigan yangi sharoitda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish zarurati bilan bog'liq edi.**



jarrohlik yo'li bilan tashqi qiyofani o'zgartirish kabi tushunchalar bugun mamlakatimiz fuqarolari uchun yangilik emas. Ammo qonunchiligidizda inson shaxsiyati bilan bog'liq somatik huquqlar dan foydalanish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni bevosita tartibga soladigan huquqiy normalar mavjud emas.

O'zbekiston sharoitida somatik huquqlarning ayrim turlari, ya'ni o'z sog'lig'iga zarar yetkazadigan tarzda tanaga munosabatda bo'lish, shu jumladan, o'z joniga qasd qilish huquqi, passiv evtanaziya, narkotik va nikotin iste'mol qilish qonun bilan ta-qiqlanadi. Ushbu huquqlar qatoriga kiruvchi ayrim munosabatlар, ya'ni fokishabozlik, besoqolbozlik esa jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ushbu munosabatlarning huquqiy asosini shakllantirishda bizning milliy mentalitetimiz va urf-odatlarimiz hamda diniy qarashlarimizni ham inobatga olish lozim. Shunda kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siq va e'tirozlarning oldi olingen bo'ladi.

Somatik huquqlarga kiruvchi sun'iy urug'lantirish, surrogat ona kabi institutlar ko'plab farzandsiz oilalarining muammolariga yechim

bo'lmoqda va jamiyatga ma'lum darajada foyda keltirmoqda. Ammo hozirgi kunda rivojlangan davlatlar qatoriga kiruvchi AQSH, Germaniya kabi mamlakatlarning qonunchiligidida ruxsat etilgan bir jinsi juftliklar nikoli kabi somatik huquqlar ni inson huquqlari sirasiga kiritish bu nafaqat axloqsizlik, balki inson genofondining halokati sari hukmi hamdir. Bu narsa barcha dinlarda mavjud bo'lgan va insonlar ongida qadriyat si-fatida shakllangan ota-oni, oila kabi o'zgarmas tushunchalarga putur yetkazadi. Jamiyatimizda ushbu qo'shtirnoq ichidagi ommaviy madaniyatning ildiz otmasligi uchun qonunchiligidizga ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Biotibbiy texnologiyalardan foydalanish sohasi ko'p hollarda huquqiy jihatdan yetarli yoki umuman tartibga solinmaganini ko'ramiz. Lekin oxirgi yillarda bu borada bir qator normativ-huquqiy hujjalarni qabul qilindi. Xususan, 2017-yil 23-oktabrda Vazirlar Mahkamasining "Buyrak va jigar bo'lagi hamda gematopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralarini transplantatsiya qilish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 859-sonli qarori qabul qilindi.

Fikrimizcha, endilikda "Bemorlarning huquqlari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va qabul qilish zarurati tug'ilmoqda. Biroq, bu ham yetarli emas. Ushbu muammoni har tomonlama o'rganib, tibbiyot sohasida biomedikal texnologiyalarni qo'llash tartibi to'g'risida alohida qonun ishlab chiqish zarur.

Har qanday holatda ham, mazkur muammolarni qonuniy hal qilish uchun asos – xalqaro hujjalarni (shu jumladan, Biologiya va tibbiyot yutuqlarining qo'llanishi munosabati bilan inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya), (Inson huquqlari va biomeditsina to'g'risidagi konvensiya)) hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, asosiy prinsip esa inson huquqlarining ustuvorligi bo'lishi kerak.

**Nodiraxon PO'LATOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,  
yuridik fanlar doktori**

**KORRUPSIYA dunyo miyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri ekani barchamizga yaxshi ma'lum. Bu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Korrupsiya jamiyatning ma'nnaviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy-iijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti uchun katta xavf tug'diradi.**

Mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish paytda korrupsiya jiddiy to'siq bo'lmoqda. Bu esa jamoatchilikni tashvishga soladi, albatta. Milliy taraqqiyot masalasi-yurt taqdidi, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur illatga qarshi mu'affaqiyatli kurashish tizimini barpo etishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni yo'nga qo'yish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, unga tanqidiy yondashgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim.

# KORRUPSIYA – IQTISODIY TARAQQIYOT UCHUN KATTA XAVF

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, unga imkon beruvchi sabab va oqibatlarni, shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iboratdir.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsianing oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim o'rinn tutadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdag'i jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Jumladan, 2022-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bilan davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyyati organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish,

baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etildi.

Taraqqiyot kushandasini bo'lgan bu illatni bartaraf etish maqsadida qabul qilinayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi hujjalarda ham aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xo-dimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lif muassasalarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lif va tarbiya masalalari o'z ifodasini topgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, korruptsiyaga qarshi kurashish faqatgina davlatning yoki muayyan bir tashkilotning vazifasi emas, balki jamoatchilikdan va har bir shaxsdan yuksak mas'uliyat, Vatanga muhabbat hamda safarbarlikni talab etishi, burchimiz ekanini unutmastigimiz kerak!

**To'lqin TO'XTASINOV,  
huquqshunos**

# HAR JABHADA XOTIN-QIZLAR FAOL

**MAMLAKATIMIZDA** amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona-bola salomatligini mustahkamlash, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlanish, ular uchun yangi ish o'rinnari yaratish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha davlat siyosati yuqori bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimizning 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 7-martdag'i "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi "Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilingani ham buning yorqin ifodasidir.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida ayollarimizning siyosiy ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki tobora kengayib



bormoqda. Oliy Majlis Senati raisining xotin-qizlar vakili ekani, ayollarning hokim lavozimlarida faoliyat yuritayotgani nafaqat mintaqamizda, balki xalqaro miqyosda ham e'tiborga molik hodisa. O'tgan yili mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar natijasiga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning chorak qismini xotin-qizlar tashkil etdi.

Bugun mamlakatimizda ayollar jamiyatning barcha sohalarida bilim va imkoniyatlarini keng namoyon qilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, ilm-fan, madaniyat va sport sohalari rivojida ham ayollarimizning munosib hissasi bor.

Istiqloldagi vazifalar qatorida O'zbekistonda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida quyidagi yo'naliishlarda ishlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiqligini alohida ta'kidlash mumkin. Bular xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash uchun ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarni kasbiy rivojlanish dasturlarini kengaytirish, gender tenglikni ilgari surish borasida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarni olib borish, xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Xulosa shuki, keyingi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash borasida sezilarli ijobjiy natijalarga erishildi. Qonunchilik bazasi mustahkamlanib, amaliy mexanizmlar hayotga tatbiq etilmoqda. Biroq, jamiyatda xotin-qizlarning to'laqonli ishtirokini ta'minlash uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar ham bir talay. Bu esa davlat va jamiyat hamkorligida, xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilishi lozim.

**Baxtiyor MAXSADOV,**  
**X. Sulaymonova nomidagi Respublika**  
**sud ekspertiza markazi bosh yuriskonsulti**

■ TALABA MINBARI

## TINCHLIK va DO'STLIK KUYCHISI




G'afur G'ulom xalq dardini xala tilida kuylagan, har bir she'rida xalqa shodlik va quvonch baxsh eta olgan buyuk siymo edi. G'afur G'ulom she'riyati o'zgacha lirik tuyg'ular, chuqur hissiyotlar va falsafiy-badiiy uyg'unliklarni jamlagan nodir asarlar jamlanmasi hisoblanadi.

Ijodkor ichki kechinmalarini hamda o'zining og'riqli hissiyotlarini qo'g'ozga to'kar ekan, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Uning 1923-yilda yozilgan "Feliks farzandlari" she'ri yetim bolalar haqidagi. Shoir bu she'rida o'zini, o'z hayotini ham tasvirlaydi. Dilbandini, ya'ni o'g'lini urushga kuzatish holati tasvirlangan o'sha mashhur she'r-dagi mehribon ota obravi orqali shoirning Vataniga, xalqiga bo'lgan muhabbatini ko'ramiz. "Kuzatish", "Biz yengamiz", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "Sog'inish" she'rlarini o'qir ekansiz, ana shunday o'yalar ko'nglingizdan o'tadi.

Ikkinci Jahon urushining og'ir yillarda front ortidagi hayotni kuzata turib, shoir bu og'ir, zalvorli turmush tarzini yurakdan his qiladi, yetimlari miskinlarga, qondoshlarga daldar, madad bo'ladigan so'zlarni bitadi. "Biz yengamiz" she'rida u front ortida qonli urush azoblari bilan yashab, qiynalayotgan odamlarga shijoat bag'ishlash, jangu jadallarda seldek yog'ilayotgan o'qlar ostida ham umidlarini tirik turgan farzandlari uchun yashashni, mehnatdan to'xtamaslikni o'rgatdi. Shoirning orzulari shu tarixa xalqimizning orzu-umidlari bilan qo'shilganicha g'alaba tarannumiga ulandi.

O'sha zalvori og'ir yillarda yoshu qari birdekor mehnat qilib, bir maqsadda tinchlik uchun kurashdi. Shoir

**O'ZBEK adabiyotida o'z o'rniiga ega bo'lgan G'afur G'ulomning adabiy merosi juda serqirra. U ham shoir, ham adib, ham akademik edi. Uning ijod namunalarida o'zbekona qadriyatlar, mehnatkash, jonkuyar xalqimizning hayot tarzi yaqqol tasvirlangan.**



ularning bu g'ayrati Vatanga bo'lgan muhabbatidan ekanini, shu mehru muhabbat ularni birlashtirganini, millionlab qora ko'zlar birdamlik bilan g'alaba uchun harakatda ekaninini mohirona tasvirlaydi. G'afur G'ulom asarlarining tub mazmuni o'zbek xalqining asriy urf-odatlari, mardligi adaptasiya, tinchlik va do'stlik, ezgulik tarannumidir.

G'afur G'ulom ijodi bolalar hamda katta yoshdagi insonlar uchun birdekor qadrali, birdekor aziz. Buning sababi u dunyoga ham beg'ubor bola qalbi bilan boqib, chin inson bo'lib yashaganligidir, balki.

Adibning adabiy merosi o'zbek bolalar adabiyotida alohida o'rinni tutadi. Bolalarga bag'ishlangan ijodiy asarlari chet tillariga ham tarjima qilinib, hozirgacha qayta-qayta nashr etilayotgani ham beziz emas. U o'z davrida rost so'zni aytan bilgan, xalqini ruhlantirgan ruhi baland ijodkor edi. "Bari seniki", "Farzandlarimga" nomli

kitoblari, "Shum bola" sarguzasht qissasi bolalarga bag'ishlangan ajoyib asarlar qatoriga kiritilgan. "Shum bola" qissasi 2023-yilda Xalqaro eng yaxshi bolalar adabiyotining top 100 talik ro'yxatiga kiritildi.

G'afur G'ulom ijodi doimo yuksak qadrlanib kelgan. Adibning akademik sifatida tan olinishi ham beziz emas. U o'zining fidoyiligi, vatanparvarligi, serqirra ijodi, halol mehnatlari uchun 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi.

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotida doimo ezgulik va adaptasiya kuychisi siyosida tasvirlanadi. Uning asarlarining o'ziga xos jihatni ham aslida u xalqning dardini va vatanga bo'lgan muhabbatini yorqin she'rlarida tarannum etganligi hisoblanadi. "O'zbekiston xalq shoiri" degan yuksak unvon sohibi aslida juda ham kamtar, soddadil, bolajon inson, toza qalb egasi edi.

G'afur G'ulom ijodi chinakam hajot maktabidir. Uning o'lmas asarlarini xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan va bu asarlar qalblarni doim zabt etaveradi. Sababi, u asarlarini insoniy qadriyatlarni ulug'lash, do'stlik va tinchlik g'oyalarini ilgari surish tamoyillari asosida yaratgan.

**Shoira ISMOIOVA,**  
**Toshkent davlat yuridik**  
**universiteti talabasi**

### E'LONLAR

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 17-martdag'i 49-um-sonli buyrug'i bilan Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2024-yil 19-dekabrdagi hal qiluv qaroriga asosan "Yorqin himoya" advokatlik byurosi advokati Rajabov Ruslan Baxodirovichga 2019-yil 22-novabrda berilgan L-70662698-sonli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 2025-yil 18-martdan 2 (ikki) oy muddatga to'xtatildi.

\*\*\*

Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 12-martdag'i 65-umson buyrug'i bilan "KR LEGAL" advokatlik byurosi advokati ABDULLAYEV SHERZOD RAJABOVICHning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi notarius D. Xalmuratovning (L-664275, 29.05.2023) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi va notarius maqomi tugatildi.

\*\*\*

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 15-yanvardagi hal qiluv qaroriga asosan joriy yilning 17-fevral kuni qonuniy kuchga kirganligi sabablari Nukus shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D. Xalmuratovning (L-664275, 29.05.2023) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi va notarius maqomi tugatildi.

## 8 ADLIYA FAXRIYLARI



DUNYODI kasblar ko'p. Kasbning katta-kichigi, yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Har qanday kasbning qadr-qimmatini ko'tarish uni tanlagan insonga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q. Bugun sizlarga tanishlirmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz ham o'z kasbini sevgan, e'zozlagan, hayotdagi barcha muvaffaqiyatlarga kasbiga sodiqligi tufayli erishgan fidoiy zamondoshlarimizdan.

### Sotuvchilikdan katta notariusgacha...

Sanobar Fozilova Shovotda tug'ilib-o'sgan. Huquqshunoslik kasbini egallaguniga qadar ota-onai izidan borib, Shovot tuman matlubot jamiyatining kichik sotuvchisi, tumandagi oyoq kiyimlar do'konini mudiri bo'lib ishladi. Bir muddat kutubxonachilik ham qildi.

Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlab, tuman agrosanoat birlashmasining huquqshunosi lavozimida faoliyat yuritdi. Tuman FHDY bo'limiga mudirlik qildi. Keyinchalik tuman davlat notarial idorasida katta notarius, notarius vazifalarida salkam 35 yil elga xizmat qildi.

Huquq sohasining qaysi yo'naliishida ishlamasin, astoydil mehnat qildi. Zamondoshlarining huquqiy bilimi va huquqiy madaniyatini oshirishga munosib hissa qo'shdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning faol ishtirokchisi bo'ldi.

Sanobar Bobojonovna nafaqat tajribali huquqshunos va ajoyib ustoz, balki sadoqatli oila bekasi, mehribon ona ham. Besh nafar farzandni elga munosib qilib tarbiyalagan saodatli ayol. Bugun turli sohalarda halol mehnat qilayotgan o'g'il-qizlarining ishidan yuzi yorug', hayotidan ko'ngli xotirjam. Ayol kishi uchun eng katta saodat aslida shu.



### Minnatdorlik hissi

Dilzoda Mutalova Andijon shahrida tavallud topgan. Huquqshunos bo'lish orzusi uni o'rta maktabni tugatgach, Toshkent davlat universitetiga yetakladi. Ish faoliyatini Jizzaxda boshladi. 1977-yil Paxtakor tuman davlat notarial idorasini notariusi, oradan besh yil o'tib, Jizzax shahar sudining sudyasi lavozimiga tayinlandi. Keyinchalik Jizzax viloyat adliya boshqarmasining katta maslahatchisi,



Zarbdor tuman davlat notarial idorasini notariusi, Do'stlik tuman hokimligi huquqshunosi, Do'stlik tuman FHDY bo'limi mudiri vazifalarida uzoq yillar faoliyat olib bordi.

1996-yil tajribali huquqshunos Dilzoda Abduraxmanovna mehnat faoliyatini ona yurti Andijonda davom ettirdi. Oltinko'l tuman FHDY bo'limi mudiri, Andijon viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining o'rnbosari, Andijon shahar FHDY bo'limi mudiri va qator yillar Xo'jaobod tuman FHDY bo'limi mudiri sifatida ish yuritdi. Samimiyati va kamtarligi bilan katta-yu kichikning hurmat-e'tiborini qozondi.

Davlat va jamiyatda, oilada o'zining yuksak o'rniga, mavqeiga ega bo'lgan bu ayol umrinining qariyib 40 yilini huquq sohasiga bag'ishladi.

### Orzulari ushalgan Otanazar aka

Otanazar Ibrohimov 1950-yilning bahorida Shovot tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. Serfrazand, serdavlat odam. Tarjimai holini o'qib, havas qilasiz. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan. Mutaxassisligi muhandis mexanik. Mehnat faoliyatini Shovot tuman O'zselxoztexnika birlashmasining katta muhandisligidan boshlagan Otanazar aka birlashma bosh muhandisi, boshqaruvchi o'rnbosari lavozimiga ko'tarildi. Tuman Agrosanoat uyushmasi raisining o'rnbosari, "O'zqishloqxo'jalikta'minot" tuzatish davlat shirkati ishlab chiqarish boshqarmasi boshlig'i, Shovot tuman hokimining o'rnbosari, hokimning birinchi o'rnbosari, Mehnatobod shirkat xo'jaligi boshqaruvi raisi, "Ibragim bobo" fermer xo'jaligi ish yurituvchisi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi Shovot tuman bo'linmasi raisi, 2013-yildan esa Shovot tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi direktori lavozimida faoliyat yuritgan.

Otanazar aka qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etdi, davr bilan hamnafas bo'ldi. 1988-2004-yillarda Xalq deputatlari Shovot tuman Kengashi deputatligiga saylandi.



Salobatiga yarasha salohiyati bor qahramonimiz nafaqat nufuzli mahkamalarning mas'ul rahbari, balki katta oila qo'rg'onida ham qattingo'l va talabchan, shu bilan birga mehribon ota maqomiga ega bo'ldi. Sakkiz nafar farzandi bilimli, hunarli, mehr-oqibatli, jamiyatda munosib o'rnini topadigan qilib katta g'urur bilan tarbiyaladi. O'g'il-qizlari mamlakatimizning turli hududlarida mas'ul lavozimlarda mehnat qilayotganidan faxrlanish Otanazar aka uchun katta baxt.

### Ibratli umr

Andijon tumanida tug'ilib-o'sgan Mannobjon Yunusov uzoq va mas'uliyatli mehnat yo'l-larini bosib o'tdi.

Faoliyatini 1967-yil Andijon tumanidagi 27-maktabda o'qituvchilikdan boshlagan Mannobjon aka saltakam 15 yil yoshlarga saboq berdi. Tumandagi 59-maktabda direktor o'rnbosari sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uzoq yillar o'zi istiqomat qilayotgan Bo'taqora qishloq kengashining mas'ul kotibi, so'ngra tuman partiya qo'mitasining maslahatchisi sifatida partiya organlarida ishladi.

1982-yil Toshkent davlat universitetini tamomlagach, o'z kasbini o'zgartirdi. Huquqshunos sifatidagi birinchi qadamini Andijon tuman FHDY bo'limidan boshladи. Bir muddat FHDY bo'limi mudiri vazifasini bajaruvchi, keyinchalik Andijon shahar 1-davlat notarial idorasining katta notariusi vazifasida ishladi. Shundan so'ng Andijon shahar sudining sudyasi va Andijon viloyat sudi sudyasi lavozimlariga tayinlandi.

1997-yildan boslab mehnat faoliyatini vilotiy advokatlar hay'ati a'zosi, Andijon shahar 1-son davlat notarial idorasining katta notariusi sifatida davom ettirdi. Ustoz huquqshunosning bosib o'tgan yo'li shogirdlar uchun o'ziga xos ibrat maktabi. Ilmidan, tajribasidan bahramand bo'lganlarning cheksiz hurmatiga sazovor bo'lgan Mannobjon Yangiboyevich hamisha el nazarida.

Xalqimizda "Mehnat qilgan elda aziz", "Mehnat shuhrat keltirar", "Mehnat - e'tibor garovi" kabi ibratli maqollar bejizga aytilmagan. Inson mehnati bilan qadr topadi, o'z umrini bezaydi. Mehnatidan baxt topgan qadrlı zamondoshlarimizga tabarruk yoshingiz muborak bo'lsin, butun umr elda aziz bo'lib yashang, deymiz.

Marusa HOSILOVA,  
"Inson va qonun" muxbirini



### SHAXSNI TASDIQLOVCHI HUJJAT YO'QOLSA QANDAY JAVOBGARLIK MAVJUD?



**INSON**  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yarvanda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligiga  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897  
4772010-789008

Bosh  
muharrir  
Asliddin  
ALIMARDON

**TAHRIR HAY'ATI**  
Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Akbar Musayev  
Xayotjon Klichev  
Sherzod Abdullayev  
Yorbek Iskandarov

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.  
  
Navbatchi  
Yorbek Iskandarov  
  
Sahifalovchi-dizayner  
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137  
  
"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter basasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi da chop etildi.  
**Korxona manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1-a-uy  
Tiraji – 1 403  
Buyurtma – 781

Topshirish vaqt – 19:00  
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:  
100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.  
  
Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65  
  
Bahosi kelishilgan narxida  
1 2 3 4 5